



## ELEKTRON NOTARIUS

Qalandarov Doniyorbek Ulug`bek o`g`li

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti, Magistratura va sirtqi ta`lim fakulteti, Davlat boshqaruv huquqi mutaxassisligi magistranti qalandarovdoniyor88@gmail.com Telefon: +998 97 600 71 61

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy notariat tizimda yuz berayotgan yangiliklar, notarial xizmatlar ko`rsatish sohasining tezkorligini oshirish, sohani raqamlashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning huquqiy asoslari to`g`risida bir qator ahamiyatli ma`lumotlar keltiriladi. Shuningdek, "E – notarius" yagona avtomatlashtirilgan axborot portalining afzalliklari hamda notarial xizmatlardan foydalanish tartibi keltirilgan. Maqola yakunida sohani rivojlantirish yuzasidan bir qator muhim taklif va tavsiyalar berib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** E – notarius, axborot, portal, notarial xizmat, videokonferensiya, ishonchnoma, notarial ishlar kalkulyatori, yuridik xizmat.

**Annotation:** This article presents a number of important information about the innovations in the modern notary system, the improvement of the speed of notary services, the reforms implemented in the area of digitization and their legal basis. Also, the advantages of the single automated information portal "E-notary" and the procedure for using notary services are presented. At the end of the article, a number of important recommendations were given for the development of the industry.

**Keywords:** E - notary, information, portal, notary service, video conference, power of attorney, notary calculator, legal service.

**Аннотация:** В данной статье представлен ряд важных сведений о нововведениях в современной нотариальной системе, повышении скорости оказания нотариальных услуг, реформах, реализуемых в сфере цифровизации и их правовой базе. Также представлены преимущества единого автоматизированного информационного портала «Е-нотариус» и порядок пользования нотариальными услугами. В конце статьи был дан ряд важных предложений и рекомендаций по развитию отрасли.

**Ключевые слова:** Электронный нотариус, информация, портал, нотариальные услуги, видеоконференция, доверенность, нотариальный калькулятор, юридическая услуга.

### KIRISH

So`ngi yillarda mamlakatimizda notariat institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta`minlash hamda fuqarolarga malakali huquqiy xizmatlar ko`rsatish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020 – yildan xususiy notariuslar faoliyati yo`lga qo`yilishi (bugungi kunda ularning soni 1000 dan oshdi), 48 turdagi notarial xizmatlar ko`rsatish, Adliya vazirligi tomonidan yagona axborotlashtirilgan elektron notarius (e-notarius.uz) portalning yaratilishi, shubhasiz sohani yanada rivojlantirishda muhim qadam bo`ldi. Mazkur tizimning ishga tushirilishi fuqarolar va yuridik shaxslarga



notarial xizmatlarni tezkor, ortiqcha ovoragarchiliksiz, masofadan turib ko`rsatish imkonini bermoqda. Notariuslar o'zi tasdiqlagan harakat qonuniyligining xolisona kafolati bo`lib, profilaktik sud himoyasining muhim funktsiyasini bajaradi, ya'ni nizolar sonini kamaytiradi yoki nizo yuzaga kelganda ishonchli dalillar bazasini ta'minlaydi<sup>23</sup>.

Axborotlashtirilgan notarius elektron portal orqali notarial xizmatlardan foydalanayotgan tomonlar hujjatlarni bir joyda jismonan bo`lmasdan, masofaviy tarzda tasdiqlashlari mumkin bo`ladi. Elektron hujjatlarning virtual olamda harakatlanishi ijobiy xususiyatlar bilan bir qatorda huquqiy va amaliy muammolarni ham keltirib chiqaradi<sup>24</sup>. Xususan, elektron hujjatlarning xavfsizligini ta'minlash bilan bog`liq bir qator muammolarni aytishimiz mumkin. Elektron notarial xizmatlarni foydalanuvchilar tegishli elektron qurilmalar (kompyuter, planshet yoki mobil aloqa vositalari) yordamida audio yoki video konferensiya shaklida amalga oshirishadi. "Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to`g`risidagi yo`riqnomani tasdiqlash haqida"gi O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug`i mavjud bo`lib, uning I – bobida notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirishda audio va videoyozuv vositalaridan foydalanilishi mumkinligi keltirib o`tilgan<sup>25</sup>. Mazkur buyruq 2019 – yilda chiqqan bo`lib, dastlab notarial xarakterlar ayrim asoslardagina (ayrim murojaat etuvchining jismoniy nuqsoni, kasalligi sababli hujjatni o`z qo`li bilan imzolay olmasa) videokonferensiya aloqa vositalari orqali amalga oshirilishi belgilab qo`yilgan. Mazkur hujjatga kiritilgan o`zgartirishlarga ko`ra, hozirda murojaat qiluvchilar uchun videokonferensiya aloqalari orqali notarial xizmatlardan foydalanish uchun yanada kengroq imkoniyat yaratib berilmoqda.

Dastlab, videokonferensiya aloqa vositalari orqali quyidagi notarial harakatlarni rasmiylashtirish mumkin bo`lgan;

- Mol – mulkni boshqa shaxsga o`tkazish bilan bog`liq bo`lmagan ishonchnomalar;
- Voyaga yetmagan farzandni chet elga chiqishga rozilik berish bilan bog`liq ariza va majburiyatnomalar;
- Ijro xatlari;
- Arizadagi imzoning haqiqiylikini shahodatlash;
- Doimiy yashash joyi va vaqtincha turgan joyi bo`yicha ro`yxatga qoyishga rozilik.

Bugungi kunda fuqarolar va yuridik shaxslar elektron axborotlashtirilgan notarius platformasi orqali 48 turdagi notarial xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Xususan, bitimlarga oid 15 ta, vasiyat va merosga oid 6 ta, boshqa turdagi notarial harakatlar 10 ta (xususan, hujjatlarni shaxodatlashga doir 3 ta – hujjatlarning nusxa va ko`chirmalari to`g`riligi, hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to`g`ri tarjima qilinganligi, tarjimonning imzosi haqiqiylik), arizalarni 11 ta, ishonchnomalar 6 ta turdagi notarial xizmatlardan foydalanishlari mumkin.

<sup>23</sup> Константин Корсик (президент Федеральной нотариальной палаты России). Официальный портал Министерства юстиции Российской Федерации.

<sup>24</sup> А. Д. Александровна - ЭЛЕКТРОННЫЙ ДОКУМЕНТООБОРОТ В НОТАРИАТЕ: ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ И ПРОБЛЕМЫ ПРАКТИКИ.

<sup>25</sup> "Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to`g`risidagi yo`riqnomani tasdiqlash haqida"gi O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug`i



2023 – yilning may oyidan 2024 – yilning aprel oyigacha boʻlgan muddatda axborotlashtirilgan notarius elektron portal orqali 5 749 751 ta notarial xizmatlar koʻrsatilgan. Mazkur raqamlarni hududlar kesimida taqsimlaganda eng katta ulush Toshkent shahri ulushiga toʻgʻri keladi. Mazkur muddat davomida poytaxtda koʻrsatilgan xizmatlar soni 1 345 163 tani tashkil etadi. Keyingi oʻrinlarda tegishli ravishda 500 mingdan ortiq xizmatlar koʻrsatilgan Samarqand hamda Fargʻona viloyatlari tashkil etadi. Notarial xizmatlar eng kam (102 174) koʻrsatilgan hudud Sirdaryo viloyati hisoblanadi. Joriy yilning oʻtgan 4 oy mobaynida notarial xizmatlar koʻrsatish sohasidagi eng katta koʻrsatgich avtotransport vositalari oldi – sotdisi hamda ularga ishonchnomalar rasmiylashtirish bilan bogʻliqdir. Mazkur sohada koʻrsatilgan notarial xizmatlar soni birgina Toshkent shahrida 83 417 tani tashkil etadi.

E – notarius platformasida yoʻlga qoʻyilgan yana bir muhim jihat, tegishli notarial xizmatdan foydalanmasdan oldin, uning uchun talab etilayotgan toʻlovning miqdorini aniqlashingiz mumkin. Mazkur xizmatni, fuqaro avtomototransport vositasini boshqarishga (boshqa shaxsga oʻtkazish huquqi bilan) ishonchnoma berish yoki olish tartibi nuqtai nazaridan tahlil qilsak. Platforma orqali “notarial ishlar kalkulyatori” boʻlimiga kiriladi<sup>26</sup>. Notarial harakatlar boʻlimidan kerakli xizmat (ishonchnoma) hamda notarial harakat (avtomototransport vositasini boshqarishga (boshqa shaxsga oʻtkazish huquqi bilan) ishonchnoma) tanlanadi. Shundan soʻng, asosiy oynada mazkur huquqiy jarayonni tartibga soluvchi yuridik asoslar roʻyxati koʻrsatiladi. (Birinchi navbatda Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda “Notariat toʻgʻrisida”gi qonun) Asosiy oynaning oʻng tomonida esa maxsus “kalkulyator” (hisoblagich)ning belgisi joylashgan. Mazkur oynaga oʻtgach, fuqaro maxsus soʻrovnomalarni toʻldirishi talab etiladi. Chunki, qonunchiligimizda ishonchnoma berishning oʻziga xos tartiblari belgilab oʻtilgan.

Soʻrovnomaning namunaviy shakli: (Javoblar misol tariqasida keltirilmoqda)

- Ishonch bildiruvchi va ishonchli vakil bir – biriga yaqin qarindoshmi? (Ha)
- Ishonchli vakillar soni? (2 ta)
- Avtomototransport turini tanlang (Avtomototransport vositasi)
- Notarial harakatlar rasmiylashtirilayotgan joy? (Notarial idora)

Natijalar quyidagicha:

1. Davlat boji: Bazaviy hisoblash miqdorining 50 % (170 000.00 soʻm)
2. Gerb yigʻimi: Bazaviy hisoblash miqdorining 10 % (har bir blank uchun) (68 000.00)
3. Pullik xizmatlar:
  - Loyiha uchun toʻlov (BHMning 10 %) – 34 000.00 soʻm
  - Tushuntirish uchun haq miqdori (BHMning 5 %) – 17 000.00 soʻm
  - Taqiqni tekshirish uchun (har bir mulkdan BHMning 15 %) – 51 000.00 soʻm
  - Majburiy ijro byuroosi maʼlumotlar bazasi orqali ijro hujjatlari boʻyicha qarzdorlik mavjud yoki mavjud emasligini tekshirish (BHMning 10 %) – 34 000.00 soʻm
  - Jami: 374 000.00 soʻm

<sup>26</sup> [https://e-notarius.uz/na\\_details/calc/13021](https://e-notarius.uz/na_details/calc/13021)



Murojaat yo`llovchilar mazkur buyruqni bajarish orqali talab etilayotgan xizmat uchun to`lov narxini bilishlari mumkin bo`ladi. E – notarius portalida tizimning ochiq hamda shaffof tarzda ishlashini ta`minlash hamda fuqarolarning mavjud kamchilik yoki takliflari yuzasidan fikrlarini tinglash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining joylashuv, elektron pochta va ijtimoiy tarmoqlardagi manzillari, bog`lanish uchun aloqa raqamlari ham keltirib o`tilgan.

Xulosa sifatida, sud – huquq sohasiga zamonaviy axborot vositalarining joriy etilishi, sohada ko`rsatilayotgan yuridik xizmatlar sifatini hamda shaffofligini ta`minlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Константин Корсик (президент Федеральной нотариальной палаты России). Официальный портал Министерства юстиции Российской Федерации.

2. А. Д. Александровна – “электронный документооборот в нотариате: правовое регулирование и проблемы практики”

3. “Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to`g`risidagi yo`riqnomani tasdiqlash haqida”gi O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug`i

Internet resurslar:

1. E – notarius.uz

2. Lex.uz